



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
B U Y R U Q

2023-yil “ 26 ” may _____

_____ 90 -son

Toshkent shahri

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-240-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 31-avgustdagi “Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorini (ro‘yxat raqami: 3383, 2022-yil 31-avgust) ijrosini ta’minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-240-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 31-avgustdagi “Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori (ro‘yxat raqami: 3383, 2022-yil 31-avgust) ijro uchun qabul qilinsin.


2. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimi faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir



B.Musaev



O'zbekiston Respublikasi
Kambag'allikni qisqartirish
va bandlik vazirining
2023-yil "26" maydagi
90 -sonli buyrug'iga ilova

Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash USLUBIYOTI

Mazkur Uslubiyot O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, shu jumladan uning hududiy va tasarrufiy tashkilotlarining (bundan buyon matnda "Vazirlik tizimida" deb yuritiladi) faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Vazirlik tizimidagi faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning maqsadlari quyidagilardan iborat:

Vazirlik tizimining korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p duch keladigan vazifa va funksiyalarini aniqlash hamda korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini shakllantirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash quyidagilar ishlab chiqilishini nazarda tutadi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur;

korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxati;

korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reyestri.

3. Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

korrupsiyaviy xavf-xatar - shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi – davlat tashkiloti faoliyatida amalga oshiriladigan vazifa va funksiyalar (jarayonlar) bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi va darajasi, funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizmlar, funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas'ul bo'lgan lavozim, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari, qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi, korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish choralarni amalga oshirishga mas'ul ijrochilarni o'z ichiga olgan hujjat;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik - korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash - davlat tashkilotining faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tahlil qilish, mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ushbu xavf- xatarlar darajasini baholash bo'yicha faoliyat;

qoldiq xavf-xatar - aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish yuzasidan belgilangan choradan keyin saqlanib qoladigan xavf-xatar;

"Komplayens nazorat" bo'limi - davlat tashkilotidagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilma;

ishchi guruh - korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari mavjud bo'lmagan davlat tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uchun tuziladigan xodimlar tarkibi.

4. Davlat tashkiloti tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash **xar yili 1-martga** qadar amalga oshiriladi.

5. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi) davlat tashkilotlarining korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish borasidagi faoliyatini takomillashtirish, ushbu yo'nalishda kamchiliklarning oldini olish bo'yicha ko'rsatmalar berilishi mumkin.

2-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni tashkil etish

6. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashda vazirlik tizimiga kiruvchi barcha tarkibiy va hududiy bo'linmalarni qamrab olishi lozim.

Bunda, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi yoki ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

7. Ishchi guruh a'zolari vazirlik tizimi tarkibiy bo'linmalari rahbarlaridan iborat tarkibda tashkil etiladi.

Vazirlik, tasarrufiy va bosh boshqarma birinchi rahbari tomonidan ishchi guruh tarkibi tasdiqlanadi hamda uning faoliyati muvofiqlashtiriladi.

8. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashda vazirlik markaziy apparatining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:


korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo'yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

vazirlik tizimining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish;

vazirlik tizimining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihasini ishlab chiqish;

vazirlik tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlar va uning hududiy bo'linmalari tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihalarini ko'rib chiqish va ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar berish;

9. Vazirlik tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlar va uning hududiy bo'linmalaridagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (ishchi guruh) quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

03 Bosh yuriskonsult 
(imzo)
№ 411 «11» MAY 2023yil

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ishlarini tashkil etish;
korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihalarini ishlab chiqish.

3-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibi

10. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (ishchi guruh) tomonidan vazirlik tizimi faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) tavsifi ushbu Uslubiyotning 1-ilovasiga muvofiq shaklda tuziladi.

11. Vazirlik tizimi faoliyatidagi (vazifa va funksiyalardagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlar ichki va tashqi axborot manbalari asosida aniqlanadi.

12. Ichki axborot manbalari quyidagilardan iborat:

Vazirlik tizimi faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) huquqiy asosi;
ichki tekshiruv materiallari, shu jumladan xizmat tekshiruvi materiallari;
odob-axloq komissiyasi majlislarining yig'ilish bayonnomalari;
korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining monitoring natijalari.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (ishchi guruh) tomonidan vazirlik tizimi faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalar, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari va boshqalar.

13. Tashqi axborot manbalari quyidagilardan iborat:

Vazirlik tizimi faoliyati to'g'risidagi huquqbuzarliklar to'g'risidagi murojaatlar (xabarlar) va statistik ma'lumotlar;

Agentlik yoki boshqa davlat tashkilotlari tomonidan davlat tashkiloti faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o'tkazilgan so'rovnomalar, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari;

huquqni muxofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan materiallar va boshqalar.

14. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (ishchi guruh) vazirlik tizimi faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlashda quyidagi holatlar tahlil qilinishi lozim:

vazirlik tizimi xodimi tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik;

vazirlik tizimi tomonidan faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sun'iy to'siqlarning mavjudligi;

o'z vaqtida qaror qabul qilmaslik, asossiz tezkor tartibda qaror qabul qilish;

hujjatlar, elektron ma'lumotlar bazalariga bila turib yolg'on ma'lumotlarning kiritilishi;

xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi;

vakolatlarni amalga oshirishda mahalliychilik, homiylik, urug'-aymoqchilik kabi holatlarning mavjudligi.

15. Davlat tashkiloti faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasi quyidagi o'lchovlarda baholanadi:

past;

o'rta;

yuqori.

16. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (ishchi guruh) tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

4-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasini bartaraf etish choralari

17. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

normativ-huquqiy hujjatlar hamda ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

inson omilini qisqartirish va davlat tashkiloti faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) raqamlashtirish, shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish;

vazirlik tizimi faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tartibga solish choralari ko'rish;

vazirlik tizimi xodimlari va jismoniy shaxslar o'rtasida to'gridan-to'gri aloqani maksimal darajada cheklash;

rasmiy veb-sayt va boshqa ommaviy axborot vositalarida vazirlik tizimi tomonidan amalga oshirilayotgan davlat haridlari to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish va tarqatish;

davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonini soddalashtirish, asossiz cheklovlarni, ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bekor qilish, byurokratik tartibga solish mexanizmlarini yo'q qilish, taqdim etilgan hujjatlar soni va qaror qabul qilish muddatlarini qisqartirish;

vazirlik tizimi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tushuntirish ishlarini amalga oshirish, profilaktik suhbatlar o'tkazish, ishonch telefonlari va aloqa kanallarida targ'ibot ishlarini amalga oshirish;

xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ichki hujjatlarga har kuni, o'zaro va to'liq rioya qilishlarini nazorat qilish;

Vazirlik tizimi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa chora-tadbirlarni ham amalga oshirishi mumkin.

18. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha mazkur Uslubiyotning 16-bandida belgilangan choralardan kelib chiqib, qoldiq xavf-xatar darajasini baholash mazkur Uslubiyotning 2- ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi.

19. Vazirlik markaziy apparatining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (ishchi guruhi) tomonidan mazkur Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq shaklda markaziy apparatning korrupsiyaviy xavf- xatarlar xaritasi loyihasi ishlab chiqiladi.

20. Vazirlik tizimiga kiruvchi tashkilotlar va uning hududiy bo'limlari tomonidan ushbu Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaviy xavf-xatarlar xarita loyihalari va mazkur Uslubiyotning 4-ilovasiga muvofiq shaklda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur loyihalari ishlab chiqiladi.

Bunda, mazkur loyihalar vazirlik markaziy apparatining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga (ishchi guruhiga) umumlashtirish uchun taqdim qilinadi.

21. Vazirlik markaziy apparatining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (ishchi guruhi) tomonidan vazirlik tizimi faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi)

3 Bva yun... (imzo)
№ 411 «11» May 2023 il

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari asosida vazirlik tizimining umumlashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqiladi va “E-Anticor.uz” elektron platformasiga har yili **1-fevralga qadar kiritiladi**.

22. Vazirlik markaziy apparatining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi (ishchi guruhi) tomonidan «E-anticor.uz» elektron platformasida joylashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga asosan avtomatik ravishda quyidagi hujjatlar shakllantiriladi:
davlat tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi;
davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo‘lgan lavozimlari ro‘yxati.

5-bob. Korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi

23. Vazirlik markaziy apparatining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi (ishchi guruhi) Agentlik va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida davlat tashkilotining korrupsiyaviy xavf- xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi loyihalarini takomillashtiradi.

24. **Vazir har yili 1-martga qadar** korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturini “E-anticor.uz” elektron platformasi orqali tasdiqlaydi.

6-bob. Yakuniy qoidalar


25. Mazkur Uslubiyot talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

O'zbekiston Respublikasi
Kambag'allikni qisqartirish va bandlik
vazirligi faoliyatida korrupsiyaviy
xavf-xatarlarni aniqlash va baholash
uslubiyotiga
1-ilova

Vazirlik tizimi faoliyatining (vazifa va funksiyalarining)

TAVSIFI

T/r	Funksiya nomlanishi	Funksiya doirasida bajariladigan jarayon	Jarayonlarni amalga oshirish uchun javobgar shaxslar (uning F.I.Sh. hamda lavozimi)
1. Vazirlik tizimi tashkilot nomi			
1.1. Vazirlik tizimi tashkilotining tarkibiy bo'linmasi			
1.1.1.			

03 Bosh yuriskonsult 
(imzo)
№ 411 «11» may 2023il

O‘zbekiston Respublikasi
Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik
vazirligi faoliyatida korrupsiyaviy
xavf-xatarlarni aniqlash va baholash
uslubiyotiga
2-ilova

**Vazirlik tizimi faoliyatida Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho
berish bo‘yicha
MEZONLAR**


Korrupsiyaviy xavf- xatar darajasi	Mezonlar
Yuqori	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) avtomatlashtirilmagan
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) tartibga solinmagan
	nazoratsiz tartibda ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funktsiya) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko‘rib chiqishda va qabul qilishda bir shaxs ishtirok etishi
	davlat tashkilotining faoliyatini (vazifa va funktsiyani) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilgan (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlangan)
O‘rta	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funktsiyasi) qisman avtomatlashtirilgan
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funktsiyasi) qisman tartibga solingan
	nazorat tartibida ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilish imkoniyati mavjud
	davlat tashkilotining faoliyatini (vazifa va funktsiyani) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko‘rib chiqishda va qabul qilishda ikkita shaxs ishtirok etishi
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funktsiyasi) bajarishda korrupsiyaviy xatti-xarakat sodir etilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumot mavjud (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlanmagan)
Past	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funktsiyasi) to‘liq avtomatlashtirilgan
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funktsiyasi) to‘liq tartibga solingan

	jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud emas
	davlat tashkilotining faoliyati (vazifa va funksiyasi) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda uch va undan ortiq shaxs ishtirok etishi
	korrupsiyaviy xatti-harakat va korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumot mavjud emas

*«Komplayens nazorat» bo'limi (ishchi guruhi) tomonidan vazirlik tizimi faoliyatida (vazifa va funksiyasida) aniqlangan xavf-xatarning yuqori yoki o'ta darajada deb baholash vazir bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

** Vazirlik tizimi faoliyatida (vazifa va funksiyasida) aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholashda, agarda past darajadagi mezonlarning biri mavjud bo'lsa, osha korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi past darajada deb baholanadi.

*

03 Bosh yuridikonsult 
(imzo)
№ 411 «11» May 2023!!

O‘zbekiston Respublikasi
Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik
vazirligi faoliyatida korrupsiyaviy
xavf-xatarlarni aniqlash va baholash
uslubiyotiga
3-ilova

“TASDIQLAYMAN”
Davlat tashkilotining rahbari
_____ F.I.Sh.
« ____ » _____ yil

_____ ni faoliyatidagi korrupsiyaviy
xavf-xatarlarning
XARITASI

T/R	Korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi	Korrupsiyaviy xavf-xatarning darajasi	Funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas’ul bo‘lgan lavozim	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi (past, o‘rta, yuqori)	Mas’ul ijrochilar
	1.Tarkibiy bo‘linmaning nomi					
1.	1.Vazirlik tizimi tashkilotining funksiyasi nomi					
	1.Funksiyaga oid munosabat nomi					
	1.Jarayon nomi					
	2.Jarayon nomi					
	2.Tarkibiy bo‘linmaning nomi					
2.	1.Vazirlik tizimi tashkilotining funksiyasi nomi					
	1.Funksiyaga oid munosabat nomi					

	1.Jarayon nomi					
	2.Jarayon nomi					

03 Bosh yuriskonsult *Dilkey*
(imzo)
№ 411 «11» MAY 2023 yil

O'zbekiston Respublikasi
Kambag'allikni qisqartirish
va bandlik vazirligi faoliyatida
korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash
va baholash uslubiyotiga
4-ilova

**Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish
DASTURI**

T/R	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar